




Siz yashaydigan joyda qanday o'simliklar bor? Ularning umumiy belgisi nima? Ular nimasi bilan ajralib turadi?

1. O'simlik guruhlari

O'simlik guruhlari – nisbatan bir xil sharoitda bir-biriga moslashib, jamoa bo'lib yashaydigan o'simliklar majmui. Bu o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi uchun bir xil sharoit: tuproq, namlik va havo haroratining umumiy bo'lishi talab qilinadi.


Guruhdagi barcha o'simliklar bir-biri bilan yonma-yon o'sishga moslashgan. Ba'zida o'simliklar quyosh nuriga yo'l topish uchun o'zaro kurashadi, ba'zida esa bir-biriga yordam beradi. Masalan, o'rmonlarda baland daraxtlarning soyabon shaklidagi shoxlari soyani yaxshi ko'radigan o'simliklarni ortiqcha quyosh nurlaridan himoya qiladi.



1-topshiriq. O'simlik guruhlarini yozib chiqing

2. Guruhlarning qatlami

Barcha guruhlardagi o'simliklar ma'lum bir balandlikka ega. Baland va pastak daraxtlar, o'rta bo'yli butalar, past bo'yli o'tlar va mox, shuningdek, yer bag'irlab sudralib o'suvchi o'simliklarni o'rmonlarda kuzatish mumkin.



Bunday o'simliklar nafaqat o'rmonda, balki, cho'l, o'tloq va ko'llarda ham uchraydi.



Cho'l



Ko'l



Sahro va ko'lining suratlarida nechta qatlam ko'rinyapti?

3. Tabiiy guruhlar

O'simlik guruhlari tabiiy sharoitga qarab nomlanadi: o'rmon, o'tloq, botqoq, ko'l, daryo, vodiya, dasht va cho'l o'simliklari.



O'tloq



Baland tog'lar



Cho'l



Daryo



Ko'l



Botqoq



2-topshiriq. O'zingiz bilgan o'simlik guruhlarini yozib chiqing. Har bir guruhda qanday o'simliklar o'sadi?

4. Sun'iy guruhlar

Sun'iy guruhlar inson tomonidan yaratiladi. Ulardan ba'zilari vaqt o'tishi bilan o'zgarib, xuddi tabiiyga o'xshab qoladi. Masalan, Chorvoq gidroelektrstansiyasi ishlashi uchun Chorvoq suv ombori qurildi. Asta-sekin uning atrofida o'simliklar paydo bo'ldi. Endi suv ombori xuddi haqiqiy ko'lga o'xshaydi.

Shaharlarda aholi dam olishi uchun soya-salqin bog'lar va sayilgohlar barpo etiladi. Bunday joylarda nafaqat bir-biriga mos o'simliklar ekiladi, balki ularning shu hududga chiroy bag'ishlashi ham inobatga olinadi. Shaharni kislorod bilan ta'minlash maqsadida ham ko'plab daraxt va butalar ekiladi.



Chorvoq suv ombori



Anhor kanali



Dala



Tomorqa



3-topshiriq. Guruhlardan biriga atab sinkveyn (besh qatorlik she'r) yozing.



O'simlik guruhlaridan biri haqida qiziqarli ma'lumotlar to'plab, matn tayyorlang.